



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIGA INGLIZ TILI TALAFFUZINI O'RGATISH XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Abduqaxxorova Guljamol Mirodil qizi

Andijon davlat chet tillari institute 312-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Moydinova Shohida

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha talim muassasalarida tarbiyalanuvchi kichik yoshdagi til o'rganuvchilarga ingliz tili talaffuziga o'rgatuvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xususida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy texnologiya, interaktiv texnologiyalar, rolli o'yinlar, tanib olish mashqlari, reproduktiv mashqlar.*

Hech birimizga sir emaski, zamonaviy texnologiyadan foydalanish hayotimizga ko'plab o'zgartirishlar va rivojlanishlar olib kirdi. Ta'lim jarayoni ham bu o'zgarishlardan holi qolgani yo'q albatta. Talaffuz me'yorlarini chet tili o'rganishning dastlabki bosqichidayoq o'rgatish juda muhim, chunki so'zlarni to'g'ri talaffuzini o'rganish keyinchalik o'quvchining kommunikativ kompetensiyasi darsjasiga ham tasir qilmay qolmaydi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yoshi juda kichik bo'lgan bolalar taxsil olishiga qaramasdan ularga ham Ingliz tilini to'g'ri talaffuz me'yorlari bilan o'qitilishi yo'lga qo'yilgan. Kichik yoshdagi til o'rganuvchilarga nazariy bilimlar berilmaydi. Shuning uchun ham, biz ularga har hil yangi metodlar bilan qiziqarli darslar o'tishimiz kerak. Ho'sh biz qanday qilib mnglab yangi metodlar orasidan aynan yoshi kichik o'quvchilarga mos tushuvchi metodlarni tanlab olamiz? Albatta, ularning yosh xususiyatlari va psixofiziologik qobiliyatlariga tayangan holda talaffuzga o'rgatuvchi usullarni ingliz tili mashg'ulotlarida qo'llash maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan bolalarning aqliy faoliyati hamda ularning diqqat davomiyligi qisqaligini inobatga olgan holda mashg'ulotlari tashkil qilinadi. Bu yoshdagi bolalar jismonan juda faol bo'lishadi. Bu faktlar va ma'lumotlarga tayangan holda ushbu metodlar va o'qitish usullarini dars jarayonida qo'llash orqali samarali natijalarga erishish mumkin deb o'ylaymiz.

1. Interaktiv texnologiyalar:

Mobil ilovalar va o'yinlar: Bolalarning qiziqishini oshirish uchun ingliz tilidagi talaffuz mashqlarini o'z ichiga olgan ilovalar va o'yinlardan foydalanish ham mumkin. Bunga Linguokids yoki Monkey Junior kabi platformalar misol bo'la oladi. Bu turdagi ilovalar bolaning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.





2. Rolli o'yinlar

Yosh bolalar jismonan faol bo'lganligi sababli ular bir joyda uzoq o'tira olmaydi va mashg'ulotlarda, darsda chalg'ishni boshlaydi. Buning oldini olish uchun biz rolli o'yinlardan foydalanishimiz kerak. Bolalarga turli rollarni ijro etish imkonini beradigan mashqlar orqali talaffuzni tabiiy ravishda o'rgatishimiz mumkin. Masalan, "Do'konda xarid qilish" yoki "Mehmon kutish" kabi mavzularda ular bilan sahna ko'rinishi yaratamiz. Bu ular uchun ham qiziqarli ham o'rganishga oson bo'ladi.

3. Bolalarning nutq xatolarini kuzatish va tuzatish

Odatda chet til o'rganayotgan bolalarni tanqid qilish xatosini topaverish ularni chet tilini o'rganishga bo'lgan shijoatini so'ndiradi. Ammo talaffuzga o'rgatayotgan davrimizda har bir bola bilan individual yondashuv asosida ish olib borish va talaffuzdagi xatolarni muloyimlik bilan tuzatish kerak. Chunki bola bir so'zni noto'g'ri talaffuz qilib o'rganib qolsa keyinchalik bu xatoni to'g'irlash qiyin bo'ladi. Bola qaysi tovushni talaffuz qilishga qiynalsa u bilan alohida ishlash lozim. Masalan, bir o'quvchi [t] tovushini noto'g'ri talaffuz qilsa u bilan individual ishlab, ko'proq fonetik mashqlar ishlatish lozim.

4. Minimal juftlik mashqlari.

Bir fonema so'zlarning talaffuzini farqlab tursa bunday so'zlar minimal juftliklar deb ataladi. Bunday so'zlardan foydalanib mashqlar bajarish talaffuzning rivojlanishi va nutqning ravonlashishiga yordam beradi. Masalan, **man/men, bright/bride, tin/thin sing** va **sang** so'zlari. Bunday so'zlarni mashq qilishdan oldin so'zlar talaffuzini farqlab turgan tovushlarni yaxshilab o'rganib olish zarur. Shundagina biz yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin.

Talaffuzga o'rgatish davomida ishlatiladigan mashqlarga kelsak, ular 2 **guruhga** bo'linadi: tanib olish mashqlari (recognition exercises) va reproduktiv mashqlar (reproduction exercises).

Tanib olish mashqlari — o'quvchilarning tovushlarni farqlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Bu mashqni o'quvchilar bilan bajarish uchun o'qituvchi Audiolingual metodlardan foydalanishi zarur. O'quvchilar tilning fonetik jihatlarini o'rganish uchun quyidagilarni bajarishlari mumkin:

a) o'qituvchining talaffuzini tinglash;

b) audiomatnlarni tinglash. Quyidagi texnika o'qituvchi o'z o'quvchilariga yangi tovushni tanib olish uchun ishlatishga tavsiya qilinadi.

Reproduktiv mashqlar — o'quvchilarning talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan bo'lib, inglizcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishlariga yordam beradi. Har bir darsda bir necha daqiqa o'zbek tilida so'zlashadigan o'quvchilar uchun talaffuz qilish eng qiyin bo'lgan tovushlarni takrorlash kerak. Bu kabi mashqlarga ishlatiladigan tovushlar yoki so'zlar darsliklardagi mavzularga mos bo'lishi kerak.





Masalan biz oila (Family) mavzusini o'tyapmiz va bu mavzuga aloqador so'zlar ichida o'quvchilarga notanish bo'lgan va talaffuz qilishda qiyinchilik tug'diradigan [ð] tovushni brother, mother, father, grandmother, grandfather kabi so'zlarida mashq qilish maqsadga muvofiq. Demak o'qituvchi shu tovushga ko'proq e'tibor berishi va shu tovush ishtirok etgan so'zlarni ko'proq talaffuz qildirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. "English Language Teaching methodology"
2. Jalolov J.J. "Chet til o'qitish metodikasi."
3. Scott, W. A., & Ytreberg, L. H. (1990). Teaching English to Children. Longman.
4. Pinter, A. (2017). Teaching Young Language Learners. Oxford University Press.
5. Moydinova, S. (2024). O'QISHNING KASBIY MAHORATNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI VA O'QISH TURLARINING TASNIFI. *Interpretation and researches*.
6. Moydinova, S. I. (2016). Diversification of interactive tools as a improving factor of foreign language teaching. *Наука и мир*, (1-3), 73-75.
7. Moydinova, S. (2022). COMPARATIVE STUDY OF NON-COMMUNICATIVE AND COMMUNICATIVE METHODS. *Thematics Journal of Education*, 7(1).
8. Moydinova, S. I., & Bazarova, G. (2023). USING SONGS IN TEACHING ENGLISH FOR PRESCHOOL CHILDREN. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 2(3), 65-68.

